



## RAQAMLI DAVRDA MA'MURIY SUD ISH YURITUVI: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

**O'rolov Abdulla Anvar o'g'li**

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 3-kurs talabasi

**Yangiboyev Norquvvat Qulnazarovich**

Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedراس katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19848923>


**Annotatsiya.** Ushbu maqola raqamli transformatsiya davrida ma'muriy sud ish yurituvining rivojlanish tendensiyalarini, duch kelayotgan muammolar va istiqbollarni tahlil qiladi. Xalqaro tajriba, xususan, Fransiya, Norvegiya, Portugaliya, Litva va Ukraina misolida elektron sud tizimlarining samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekistonda "Raqamli sud" konsepsiyasining joriy etilishi, mavjud statistik ma'lumotlar va Germaniya tajribasiga asoslangan integratsiya imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola yakunida O'zbekiston uchun raqamli ma'muriy sud ish yurituvini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ma'muriy sud ish yurituvi, raqamlashtirish, elektron sud, sun'iy intellekt, xalqaro tajriba, O'zbekiston

**Аннотация.** Данная статья анализирует тенденции развития административного судопроизводства в условиях цифровой трансформации, а также возникающие проблемы и перспективы. На основе международного опыта, в частности примеров Франции, Норвегии, Португалии, Литвы и Украины, исследуется эффективность систем электронного суда. Кроме того, рассматриваются внедрение концепции «Цифровой суд» в Узбекистане, существующие статистические данные и возможности интеграции на основе опыта Германии. В заключение статьи предлагаются практические рекомендации по совершенствованию цифрового административного судопроизводства в Узбекистане.

**Ключевые слова:** административное судопроизводство, цифровизация, электронный суд, искусственный интеллект, международный опыт, Узбекистан.

**Abstract.** This article analyzes the development trends of administrative judicial proceedings in the era of digital transformation, as well as the challenges and future prospects. Based on international experience, particularly the examples of France, Norway, Portugal, Lithuania, and Ukraine, the effectiveness of electronic court systems is examined. In addition, the implementation of the "Digital Court" concept in Uzbekistan, existing statistical data, and integration opportunities based on Germany's experience are analyzed. The article concludes





with practical recommendations for improving digital administrative judicial proceedings in Uzbekistan.

**Keywords:** administrative judicial proceedings, digitalization, e-court, artificial intelligence, international experience, Uzbekistan.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, sud-huquq tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida davlat boshqaruvi tizimi yangi bosqichga ko'tarilib, odil sudlovni amalga oshirishning an'anaviy mexanizmlari tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, ma'muriy sud ish yurituvchi sohasida raqamlashtirish jarayonlari fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni yanada samarali tartibga solish imkonini bermoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda sud tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. 2025-yil 27-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda sud faoliyatini raqamlashtirish masalalari muhokama qilingan. Unda quyidagi statistik ma'lumotlar keltirilgan: Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ishlarning 30 foizi hali ham qog'ozda ko'rilmogda; Fuqarolik sudlarida qog'ozda ko'rilayotgan ishlar ulushi 25 foizni tashkil etadi; Ma'muriy sudlarda bu ko'rsatkich 15 foizni; Iqtisodiy sudlarda 10 foizni tashkil etadi.<sup>1</sup> Shuningdek, yig'ilishda 14 ming ishning 6 mingga yaqini (42 foizi) tadbirkorlar va aholi foydasiga hal qilingani ta'kidlangan. Bu sud tizimining himoya funksiyasini kuchaytirish borasidagi ijobiy tendensiyani ko'rsatadi.

Ma'muriy sudlar nisbatan yangi institut hisoblanadi. 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son Farmoni bilan "fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek sud ishlarini ko'rishni soddalashtirish maqsadida" tajriba tariqasida "Raqamli sud" konsepsiyasi joriy etilmoqda. Konsepsiyaning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: **To'liq elektron murojaat qilish** — barcha murojaatlar sudga elektron shaklda yuboriladi; **Masofaviy ishtirok** — jarayon ishtirokchilari sud binolariga tashrif buyurmaydi va sud muhokamasida masofadan turib ishtirok etadi; **AI yordamida prognozlash** — sudga ariza berishdan oldin sun'iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi va xarajatlar kalkulyatsiyasi shakllantiriladi. Tajriba natijalariga ko'ra, "Raqamli sud" konsepsiyasini 2026–2027 yillarda butun mamlakat bo'ylab joriy etish rejalashtirilgan.<sup>2</sup>

### Xalqaro hamkorlik va Germaniya tajribasi


<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/28/court-system/>

<sup>2</sup> [https://buxgalter.uz/oz/publish/doc/text210184\\_uzbekistonda\\_raqamli\\_sud\\_qanday\\_ishlaydi](https://buxgalter.uz/oz/publish/doc/text210184_uzbekistonda_raqamli_sud_qanday_ishlaydi)





O'zbekiston ma'muriy sud tizimini takomillashtirishda Germaniya tajribasiga alohida e'tibor qaratmoqda. 2026-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinbosari Sh.Polvonov Germaniya Adliya vazirligi huzuridagi Xalqaro huquqiy hamkorlik jamg'armasi direktori bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi hamkorlik, sudyalar malakasini oshirish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va tahlil qilish orqali O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Germaniya ma'muriy sudlov tizimi rivojlangan mamlakat sifatida O'zbekiston uchun muhim tajriba manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi doirasida yangi tahrirdagi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli sud tizimlarini joriy etish jarayoni katta imkoniyatlar bilan bir qatorda bir qator jiddiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Avvalo, texnik muammolar eng keng tarqalgan to'siqlardan biri hisoblanadi. Ko'plab davlatlarda videokonferensiya tizimlarining barqaror ishlamasligi, internet aloqasining sifati pastligi sud jarayonlarining uzluksiz o'tkazilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Rossiya tajribasida sud majlislari davomida ovoz yoki tasvir uzilib qolishi sababli translyatsiyani qayta tiklashga majbur bo'lingan holatlar kuzatilgan. Shu bilan birga, huquqiy noaniqlik masalasi ham dolzarbdir. Ayrim davlatlarda masofaviy sud majlislarida ishtirok etish tartibi yetarli darajada aniq tartibga solinmagan. Masalan, Rossiyada ushbu masala ko'p jihatdan sudyaning ixtiyoriga bog'liq bo'lib, bu holat fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan huquqlarini cheklash xavfini tug'diradi. Qonunchilikda shaxsan ishtirok etish zarur bo'lgan holatlar uchun aniq mezonlarning mavjud emasligi amaliyotda turli talqinlarga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik masalalari ham muhim xavf omillaridan biridir. Raqamlashtirilgan sud tizimlari ko'plab maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi sababli, ular kiberhujumlar uchun jozibador nishonga aylanadi. 2024-yil yanvar oyida Viktoriya shtatida sodir bo'lgan kiberhujum natijasida sud majlislarining audio va video yozuvlari o'g'irlangani bu xavfning naqadar jiddiy ekanligini ko'rsatadi. Bunday holatlar xalqaro amaliyotda kam uchramaydi va raqamli tizimlarning ishonchliligiga putur yetkazishi mumkin. Shuningdek, loyihalarni boshqarish bilan bog'liq muammolar ham alohida e'tiborga loyiq. Masalan, Niderlandlarda sud tizimini raqamlashtirish loyihasi murakkablik va noto'g'ri boshqaruv sababli to'xtatilgan bo'lsa, Kiprda joriy etilgan "e-Justice" tizimi qisqa vaqt ichida texnik





nosozliklar va tizimli kamchiliklar tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Bu holatlar raqamlashtirish jarayonida puxta rejalashtirish va bosqichma-bosqich yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Mazkur xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda "Raqamli sud" konsepsiyasini joriy etishda ham bir qator xavf omillarini hisobga olish muhimdir. Eng avvalo, texnik infratuzilma masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Masofaviy sud majlislarini samarali tashkil etish uchun barqaror internet aloqasi va zamonaviy texnik vositalar zarur. Ayniqsa, hududlarda bu boradagi kamchiliklar tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi ham muhim muammo hisoblanadi. Aholining ayrim qatlamlari, xususan, keksa yoshdagi fuqarolar va qishloq hududlarida yashovchilar elektron tizimlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bu esa "raqamli tafovut" muammosini yuzaga keltirib, fuqarolarning sud tizimiga teng kirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuningdek, ayrim amaliy tizimlar bilan bog'liq kamchiliklar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Masalan, avtokameral nazorat tizimining to'liq ishlamasligi yoki noto'g'ri sozlanishi fuqarolar va tadbirkorlar uchun qo'shimcha muammolar tug'dirishi mumkin. Shu bois "Raqamli sud" tizimi boshqa elektron tizimlar bilan uyg'un va mukammal ishlashi zarur. Sudyalarning va sud tizimi xodimlarining raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha malakasi ham muhim omillardan biridir. Zamonaviy sud tizimi faqat texnologiyalar bilan emas, balki ularni samarali boshqara oladigan mutaxassislar bilan ham bog'liq. Bu borada Odil sudlov akademiyasining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>3</sup>

### **O'zbekiston uchun integratsiya strategiyasi**

Raqamli sud tizimini samarali joriy etish va rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich strategik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Qisqa muddatli (1-2 yil) istiqbolda eng avvalo normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Bunda masofaviy ishtirok etishning aniq mezonlarini qonun darajasida belgilash, elektron hujjatlarning yuridik kuchini mustahkamlash hamda elektron raqamli imzodan foydalanish tartibini aniq reglamentlashtirish muhimdir. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Infratuzilma yo'nalishida sudlarni zamonaviy videokonferensiya uskunalari bilan jihozlash, barqaror va xavfsiz internet aloqasini ta'minlash hamda markaziy va hududiy sudlar o'rtasida yagona axborot tizimini yaratish talab etiladi. Kadrlar tayyorlash sohasida esa sudyalarning va sud xodimlari uchun raqamli savodxonlik bo'yicha majburiy o'quv dasturlarini joriy


<sup>3</sup> <https://yuz.uz/en/news/odil-sudlov-akademiyasi-tashkil-etiladi-sudyalikka-tayinlash-muddatlari-qayta-korib-chiqiladi>





etish, Odil sudlov akademiyasida raqamli texnologiyalar va ma'muriy sud ish yurituvi bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish hamda advokatlar va huquq yordamchilari uchun amaliy treninglar o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, "Raqamli sud" konsepsiyasini dastlab ayrim hududlarda pilot loyiha sifatida joriy etib, uning natijalarini chuqur tahlil qilish orqali tizimni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. O'rta muddatli (3–5 yil) bosqichda asosiy e'tibor tizimlarni integratsiyalashga qaratiladi. Sud axborot tizimlarini soliq, bojxona va ichki ishlar organlari tizimlari bilan integratsiya qilish, "E-ma'muriy ish" axborot tizimi orqali davlat organlarining sudga hujjatlarni elektron taqdim etish tartibini to'liq joriy etish hamda yagona "elektron sud" platformasini yaratish muhim vazifalardir. Sun'iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish ham muhim yo'nalish hisoblanadi.<sup>4</sup> Norvegiya tajribasiga tayangan holda AI tizimlarini avval hujjatlarni saralash, sud amaliyotini tahlil qilish va ishlarni avtomatik taqsimlash kabi yordamchi funksiyalarda qo'llash, Fransiya tajribasi asosida esa bashoratli adolat tizimini ishlab chiqish, biroq sud qarorlarining mustaqilligini to'liq saqlab qolish zarur. Shuningdek, sud qarorlarining ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish va ularni tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajribani o'zlashtirish doirasida Germaniya ma'muriy sudlov tizimini chuqur o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish, Norvegiyaning Aktørportal va LOVISA tizimlari asosida sud va advokatlar o'rtasida xavfsiz aloqa platformasini yaratish hamda Portugaliya, Litva va Ukraina tajribasida aniqlangan muammolarni (raqamli tafovut va kadrlar yetishmovchiligi) inobatga olish zarur. Bundan tashqari, raqamlashtirish samaradorligini baholash uchun aniq indikatorlar tizimini ishlab chiqish, ishlarni ko'rish muddati, xarajatlar va fuqarolar qoniqishi kabi mezonlar asosida monitoring olib borish hamda har yilgi hisobotlarni e'lon qilib borish tavsiya etiladi. Uzoq muddatli (5–10 yil) istiqbolda esa to'liq raqamli ekotizimni shakllantirish asosiy maqsad bo'lishi lozim. "Sud – advokat – davlat organlari – fuqarolar" o'rtasida uzluksiz raqamli aloqa tizimini yaratish, blockchain texnologiyasi yordamida sud hujjatlarining o'zgarmasligi va ishonchliligini ta'minlash hamda "aqli shartnomalar" (smart contracts) asosida ayrim nizosiz ishlarni avtomatik hal qilish tizimini joriy etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilishni rivojlantirish yo'nalishida oddiy va takrorlanuvchi ma'muriy ishlarni AI yordamida avtomatik ko'rib chiqish, sud qarorlari loyihalarini avtomatik tayyorlash tizimini joriy etish (sudya nazorati ostida) hamda sudya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi AI-

<sup>4</sup><https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/28/court-system/>





assistentlarni yaratish istiqbolli yo'nalishdir. Xalqaro raqamli hamkorlik doirasida esa MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan elektron hujjat aylanishi hamda sud qarorlarini tan olish bo'yicha shartnomalar tuzish, shuningdek, transchegaraviy ma'muriy nizolarni ko'rib chiqish uchun yagona raqamli platforma yaratish kelajakdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-son Farmoni – “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan “Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi”
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi yig'ilish materiallari (sud faoliyatini raqamlashtirish masalalari)
4. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalida – “Концепция "цифрового суда" - коренной поворотный момент в деятельности судов” (2025-yil 3-sentabr)
5. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi – “Sudlar faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etiladi” (2025-yil 25-avgust)
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi – Sh.Polvonovning Germaniya Adliya vazirligi huzuridagi Xalqaro huquqiy hamkorlik jamg'armasi direktori bilan uchrashuv materiallari (2026-yil mart)
7. Toshkent shahar sudi – “Цифровое правосудие: меньше бюрократии, больше прозрачности”
8. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi – ““Raqamli sud” kontsepsiyasi: odil sudlovning yangi bosqichi” (2025-yil 12-sentabr)
9. Buxgalter.uz – “O'zbekistonda «raqamli sud» qanday ishlaydi” (2025-yil 24-avgust)
10. Norma.uz – “O'zbekistonda «raqamli sud» qanday ishlaydi” (2025-yil 26-avgust)
11. Zarnews.uz – ““Raqamli sud” tizimi joriy etiladi” (2025-yil 30-avgust)

